

GEOGRAFIYANI BILISH ZARURIYATI

Egamov Baxtiyor Do'stnazar o'g'li

Qurbanmurodov Elyor Ulugbek o'g'li

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada geografiya fanining hozirgi zamonda tutgan o'rni va ahamiyati, hozirgi davrda bu fanni nima uchun o'rganish zarurligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Geomorfologiya, glyatsiologiya, geourbanistika, toponimika, geosiyosat, evristik suhbat, diskussiya, matematik modellashtirish, „Yangi O'zbekiston”.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yangidan yangi fanlar va sohalar vujudga kelmoqda. Ba'zi fanlar esa o'z amaliy ahamiyatini yo'qotib o'rnini yangi vujudga kelayotgan fan va sohalar egallamoqda. Mana shunday shiddatkor va o'zgaruvchan bir davrda juda qadimdan mavjud bo'lgan, hozirda ham o'z amaliy ahamiyatini yo'qotmagan fanlar ham mavjud. Bu fanlar zamon bilan hamnafas rivojlanib, takomillashib, o'rganish darajasi chuqurlashib boraveradi. Chunki, bu fanlarni chuqur o'rganish orqali insoniyat jamiyatini doimiy rivojlanishga erishadi, bu fanlarga e'tibor berilmasa yoki bu fanlarda keltirilgan qonuniyatlarga amal qilinmasa, insoniyat jamiyatni rivojlna olmaydi. Bunday fanlar sirasiga nihoyatda keng qamrovga ega bo'lgan **geografiya** fani ham kiradi.

Barchamizga ma'lumki, geografiya fani Yer yuzining tabiatini, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini o'rganadigan fan. **Geografiya** grekcha „geo”-Yer, „grafo”-yozaman degan ma'noni bildiradi. „**Geografiya**” so'zi „Yerning tasviri”, „Yerni tasvirlab yozaman” degan ma'nolarni anglatadi[1].

Ma'lumki, geografiya fani ikkita yirik tarmoq – *tabiiy* va *ijtimoiy-iqtisodiy* geografiyaga bo'linadi. Birinchisi geografik qobiq, uning komponentlari va Yer

yuzidagi geotizimlarni tadqiq etsa, ikkinchisi dunyo, uning mintaqa va mamlakatlari, shahar va qishloqlar miqyosida aholi, uning yashash tarzi va madaniyati, ishlab chiqarishsohalari, siyosiy voqea-hodisalarni o'rganadi.

Geografik bilimlar qamrovi va hajmining kengayishi, fanning ilmiy-amaliy ahamiyatining chuqurlashuvi natijasida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya tarkibida bir nechta mohiyatan torroq fan va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari shakllandi. Jumladan, tabiiy geografiya doirasida alohida tabiat komponentlarini atroflicha o'rganadigan fanlar shakllanib, mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda: *geomorfologiya* (Yer yuzi relyefini o'rganadi), *iqlimshunoslik* (iqlim xususiyatlarini o'rganadi), *gidrologiya* (gidrosferani o'rganadi, okeanologiya va quruqlik gidrologiyasiga bo'linadi), *glyatsiologiya* (qor va muzliklarni tadqiq etadi), *geokriologiya* (ko'p yillik muzloq yerlarni o'rganadi), *tuproqlar geografiyasi* (tuproqlarning tarqalishini o'rganadi) va *biogeografiya* (tirik organizmlarning Yer yuzida tarqalishini o'rganadi, geobotanika va zoogeografiyaga bo'linadi). Sayyoraviy ahamiyatga ega tabiiy geografik jarayonlarni va geografik qobiqni bir butun yaxlit tizim sifatida *umumiy tabiiy geografiya* o'rganadi. Kichik hududlar tabiatining tuzilishi va xususiyatlarini tadqiq qiluvchi *landshaftshunoslik* fani ham tabiiy geografik fanlar qatorida alohida ajralib turadi. Tabiatga inson xo'jalik faoliyati ta'sirining kuchayishi munosabati bilan vujudga kelgan *geoekologiya* fani atrof tabiiy muhitda ro'y berayotgan o'zgarish va ekologik muammolarni geotizimlar doirasida tadqiq etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya doirasida ham shunga o'xshash tarmoqlanish jarayoni rivojlanib bormoqda. Buning natijasida, *aholi geografiyasi*, *shaharlar geografiyasi* (geourbanistika), *siyosiy geografiya* (jahon siyosiy xaritasi, davlat chegaralari, siyosiy munosabat va jarayonlarni o'rganuvchi fan), *sanoat geografiyasi*, *qishloq xo'jaligi geografiyasi*, *transport geografiyasi*, *turizm geografiyasi*, *xizmat ko'rsatish sohasi geografiyasi*, *etnogeografiya* (xalqlar geografiyasi), *din geografiyasi* va boshqa geografik fanlar vujudga kelgan. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy geografik fanlar ichida jahon iqtisodiyoti va xalqaro mehnat taqsimotini o'rganuvchi *jahon xo'jaligi geografiyasi* hamda dunyo mamlakatlarini har tomonlama tadqiq etadigan *mamlakatshunoslik* kabi keng fanlar ham rivojlanmoqda. Yuqoridaqilardan xulosa

chiqarib aytish mumkinki, geografiya hozirgi davrda maqsad va vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta fanlardan iborat bo‘lgan *fanlar tizimiga* aylandi. Bu fanlar tizimi tarkibida tabiiy geografik va ijtimoiy (ya’ni, jamiyatni o‘rganuvchi) geografik fan guruhlari ajralib turadi. Shuningdek, jamiyat va tabiatning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish chog‘ida qator umumgeografik mazmun-mohiyatga ega fanlar ham tarkib topgan, masalan, *tabiiy resurslar va tabiatdan foydalanish geografiyası, tibbiy geografiya* (turli hududlarda yashovchi aholining salomatligi va kasallanishi, unga ta’sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy omillarni o‘rganadi). Geografik fanlar tizimida geografik xaritalarni tuzish va ular bilan ishlashni o‘rganadigan *kartografiya* fani alohida o‘rin va ahamiyatga ega. Geografik fanlar turkumiga kiruvchi barcha fanlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, umumiyligi ilmiy va amaliy maqsadlarni ko‘zlagan holda rivojlanmoqda. Turli geografik fanlar uyg‘unligida Yer yuzi va alohida hududlar haqida yaxlit tasavvur shakllanadi, mamlakat va hududlar rivojlanishining muammo va istiqbollari aniqlanadi, tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Geografiyani o‘rgana boshlagan paytda bu fanning nomi qadimgi yunon tilida “*Yerning tasviri*” degan lug‘aviy ma’no berishini bilib olgansiz. Lekin hozirgi davr geograflari turli joylar tabiatini, aholisi va xo‘jaligini tasvirlash va tavsiflash bilan cheklanib qolmasdan, turli tabiiy va ijtimoiy hodisalarning vujudga kelish va hududiy tarqalish qonuniyatlarini o‘rganadilar, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va ziddiyatlarni atroflicha tahlil qiladilar, dolzarb ahamiyatli ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni hududlarning o‘ziga xos sharoit va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar. Zamonaviy geografiya an’anaviy tasvirlovchi mohiyatdagi “*Nima? Qayerda? Qancha?*” savollariga javob beruvchi fandan “*Nima? Qayerda? Qancha? Nima sababdan? Qanday foydalanish kerak? Yaxshilash uchun nima qilish kerak?*” degan savollarga javob topuvchi keng qamrovli nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fanlar tizimiga aylandi[2].

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, geografiya fani ko'plab fanlar bilan chambarchas bog'langanligidan qaysi soha vakili bo'l shidan qat'iy nazar xoh siyosatchi, xoh tarixchi, xoh tibbiyat xodimi bo'lsin, bu fanni o'rganishi zarur. Bu fanni yaxshi o'zlashtirmasdan turib kuchli siyosatchi, zo'r iqtisodchi yoki yetuk tarixchi darajasiga erishib bo'l maydi.

Hozirgi vaqtgacha maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'tilgan geografiya darsliklarida ma'lumotlarning asosiy qismi statistika va ma'lumotlarni yodlashga qaratilgan. Ularning amaliy ahamiyat darajasi esa past. Geografiya fanidek qiziqarli fan esa insonlar ongiga zerikarli, amaliy ahamiyati yo'q fandek tasavvur qilinishiga sabab bo'ldi. Biz ba'zida o'y lab qolardik, nega bu fanni o'qishimiz kerak? Kitoblarda berilgan ma'lumotlar allaqachon eskirgan bo'lsa, biz esa kitobdan yodlashga majbur bo'lgan ma'lumotlarni esa osongina internetdan topish mumkin bo'lsa, o'qigan ma'lumotlarimizni ko'pini esa amaliyotda qo'llash mumkin emasdek tuyulardi. Ammo biz vaqt o'tishi bilan o'z ustida tinimsiz ishlovchi talabchan ustozlarimiz ko'magida shu narsalarni anglab yetdikki, muammo bu fanda emas. Muammo, fanning amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tomonlarining, biz uchun kelajak hayotimizda kerak bo'lgan qismlarining yaxshi yoritib berilmaganligida. Insonlar o'z kelajagini kafolatlaydigan, hayotda o'z o'mini topishga yordam beradigan bilimlarni egallaydi. To'g'rida, hayotda biz uchun kerak bo'l magan, nafi tegmaydigan bilimlarni o'rgangandan ne foyda? Geografiya fani haqida ham keraksiz, amaliy ahamiyati yo'q fan sifatida tasavvurlar shakllanib bo'ldi. Bunga esa sabab sifatida geografiya faniga *an'anaviy* tasvirlovchi mohiyatdan yondashilganligi bo'ldi. Hozirgi kunda esa geografiyaga *zamonaviy* mohiyatdan kelib chiqqan holda qaralmoqda va bu fanning amaliy ahamiyat darajasi ortmoqda.

Geografiyada biror bir geografik obyekt haqida so'z ketganda uni *an'anaviy tasvirlash* deganda quyidagicha tasvirlash tushuniladi:

Nima?-Orol, Qayerda?-O'rta Osiyoda, Qancha?-13900kv.km.

Hozirgi zamon geografiyasida tasvirlanganda esa quyidagicha bo'ladi.

Nima?-Orol, Qayerda?-O'rta Osiyoda , Qancha?-13900kv.km,

Nima sababdan?-Orol dengiziga quyiluvchi 2 yirik daryo Amudaryo va Sirdaryo suvlari Orolga yetib bormasligi sababli, Qanday foydalanish kerak?-Qolgan suv havzasini asrab-avaylash, Yaxshilash uchun nima qilish kerak?-Orolga quyiluvchi daryo suvlaridan unumli, tejamkor uslubda foydalanish,qurigan qismlarini tuproq qoplami uchib ketishini oldini olish uchun saksovulzorlarni bunyod etish.

E'tibor beradigan bo'lsak an'anaviy tasvirlashda shunchaki biror bir tasvirlanayotgan geografik obyekt haqida statistik ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsak. Endi zamonaviy geografiyada o'sha obyekt haqida shunchaki bilib qo'ymasdan, nazariy va amaliy jihatdan unga yondashib, o'sha geografik obyektni baholab undagi muammolarni hal qilish jarayonida bevosita ishtirok etamiz.

Keyingi paytlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda o'quv dasturlari geografiya darslari mamlakat xalq xo'jaligi ehtiyojini e'tiborga olgan holda tuzilmoqda va yaratilmoqda.

Chet el davlatlarida geografiya ta'limida eng ko'p qo'llaniladigan usullar quyidagilar hisoblanadi:

1. Evristik suhbat metodi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarni ko'proq mustaqil bilim olishga, kichik tadqiqotlar qilishga o'rgatishdan iborat. Kartinalar, turli xil xujjatlar, vositalar asosida muammolar va savollar o'quvchilar diqqatiga havola etiladi. Bunday usul ko'proq AQSH, Buyuk Britaniya, Yangi Zillandiya , G'arbiy Yevropa davlatlarida keng tarqalgan.

2. Tarqatma kartochkalar usulida turli chizmalar, jadvallar, xaritalar turlicha xatoliklarga yo'l qo'yib tuziladi va tarqatiladi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan o'sha xatolarni mustaqil topishlari talab qilinadi. Turli xil misollar va masalalar yechish ham o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish tufayli ulardan keng qo'llaniladi, o'quvchilarda ishbilarmonlik, uddaburonlik hislatlarini shakllantirish uchun ham ko'proq misol va masalalardan foydalaniladi. Tayyor mahsulotni qayerda sotish, transport harajatlarini aniqlash, mehnat resurslaridan unumli foydalanish kabi misol va masalalar yechishsiz amalga oshmaydi.

3. Matnlar, ya'ni javoblar to'g'ri, noto'g'ri tarzda aralashtirilib berilishi shulardan to'g'risini raqamlar bilan belgilab ajratish keng tarqalgan usullardan hisoblanadi.

4. Statistik manbalar bilan ishlash, kartografik qo'llanmalardan foydalanish, matematik modellashtirish keng tarqalgan o'qitish usullari hisoblanadi.

Ayniqsa **diskussiya, tortishuvlar** kapitalistik mamlakatlar geografiya ta'limida keng tarqalgan[3].

Ko'rinib turibdiki, geografiya fanini o'rganishda asosiy e'tibor amaliy jihatdan jamiyatga naf keltiradigan qismlariga qaratilgan. Yurtimizda ham ko'pchilik fanlar qatorida geografiya rivojlanishiga ham e'tibor qaratila boshlandi. Biz esa bevosita ushbu yangilanish, islohotlar ishtirokchilari sifatida rivojlanamiz. Bizning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishimiz,jamiyatda egallaydigan o'rnimiz, hozirgi ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarga bevosita bog'liq. O'ylaymizki, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar yaqin yillar ichida o'z samarasini berib barcha fanlar qatorida geografiya fani rivojlanishiga ham sabab bo'ladi. Shu olib borilayotgan islohotlar barobarida Oliy o'quv yurtlarining geografiya yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlash va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida amaliyot,ekskursiya hamda tadqiqotlarga talabalar ko'proq jalb etilsa malakali kadrlar salmog'i yanada oshishishiga ishonamiz. Geografiya sohasida puxta bilimga ega bo'lgan kadrlar esa geografiya fanining o'rganishni asl mohiyatini ochib bera oladi. Zero, geografiyani yaxshi bilgan insonlar dunyo hamjamiyatida ro'y berayotgan tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga o'z shaxsiy munosabatlarini bildiradilar. Bo'layotgan jarayonlarni tahlil qilib kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ham ishlab chiqa olishadi. Ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish, shaharlar va qishloqlar aholi punktlarini joylashtirish bo'lsin, umuman shunga o'xshash ko'plab sohalarga geografiya fanlarining biror tarmog'iga murojaat qilinadi.

Xulosa qilib aytganda „Yangi O'zbekiston” rivojiga hissa qo'shish, jamiyatimiz rivojiga xizmat qilishimizda geografiyani o'rni beqiyos darajada.Jamiyat hamda tabiat muammolarini vaqtida aniqlay oladigan,tahlil qilib,bu muammolar yechimini ishlab chiqa oladigan insonlar bo'lib yetishish,yurtimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shish maqsadida biz ham o'qib o'rganmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.**P.Gulyamov, R.Qurban niyozov, M.Avezov, N.Saidova//5-sinf geografiya(tabiiy geografiya boshlang'ich kursi)// „Mitti yulduz”, Toshkent-2020.
- 2.**Sh.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov//10-sinf geografiya(amaliy geografiya)//„O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”,Toshkent-2017.
- 3.**H.Vaxobov,N.R.Alimqulov,N.B.Sultanova// „Geografiya o'qitish metodikasi” //Toshkent-2020.